

BADIY MATNDA QO‘LLANGAN EVFEMIK VA DISFEMIK BIRLIKLARNING USLUBIY VAZIFASI

Dilnavoz Abduraximova

Farg‘ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada evfemik va disfemik birliklar tahlilga tortilgan. Tilshunoslikda "evfemizm" va "disfemizm" tushunchalarining ahamiyati, tabu va evfemizmlar xalqning ijtimoiy hayoti, milliy urf-odatlarini, mentaliteti bilan bog‘liq holda mavjud bo‘lishi, bu ikki tushuncha madaniyat va til manbalaridan tarkib topgan etnolingvistik atamalar ekanligi haqida fikr yuritiladi. Ularning matn tarkibidagi stilistik funksiyalari aniqlangan.

Kalit so‘zlar: evfemik ma'no, disfemik birlik, sinonimik qator, salbiy munosabat, zid ma'noli disfemizmlar.

Har bir fanda rivojlanish bo‘lgani kabi tilshunoslik ham kundan-kunga taraqqiy topib, turli yangi oqimlar, yo‘nalishlar, yangi ilmiy-nazariy qarashlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Darhaqiqat inson tili benihoya murakkab bo‘lib, uning barcha jihatlarini yaxlitligicha va birdaniga tasavvur qilish o‘ta murakkabdir. Shunday bo‘lsa-da, dunyo tilshunosligi tarixidagi bir necha asrlik tajribalar turli oqim namoyandalari tilni tadqiq etishni eng maqbul yo‘l hisoblab, bu yo‘lda o‘rganish obyektni va uning mohiyatini aniq ko‘rsatib berish uchun butun umrlarini sarflaganlarini ko‘rsatadi. Hozirgi zamon yetakchi tilshunoslik ilmiy markazlarida "evfemizm" tushunchasi nihoyatda keng qo‘llaniladi, semantik kategoriya sifatida muloqotning mazmunga boy jihatlarini namoyon etadi, ifodalangan fikr-mulohazaning muloqot jarayonidagi nufuzini oshiradi. "Evfemizm" yunoncha "yumshoq ifodalash" so‘zlovchiga aytish noqulay, noo‘rin yoki qo‘pol tuyulgan so‘z va iboralarning sinonimi sifatida paydo bo‘lgan so‘zlardir.¹

Buyuk so‘z ustasi, o‘z davrining mashhur felyetonchisi, yozuvchi Abdulla Qahhorning publitsistik maqolalari o‘sha davrlardayoq kishilar e’tiborini qozonishi sababi uning so‘zga “to‘n kiydira olish” mahorati, xususan, evfemizmlardan foydalana olish san’atida desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Uning qalamiga mansub asarlar muayyan ma’noda evfemizmlardan iborat majmua kabi ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. "Bemor" hikoyasida "**Kasal**" tushunchasining evfemalarini adib qahramon yoki o‘z tilidan turli vaziyat va shaklda ifodalaydi. Salbiy yoki hajviy qahramon nutqidan ijobiy, madaniyatli obraz nutqi farqlangani bois, o‘z navbatida, evfemik ma’nolar ham bir necha turga ajraladi. Ma’lum guruh kishilarigagina tushunarli bo‘lgan argotik evfema,

¹ Omonturdiyev A., O‘zbek nutqining evfemik asoslari, T., 2000.

shu voqelikka aloqador suhbatdoshgagina ma'lum qarg'ish, haqoratni aks etuvchi evfemik birliklar farqlanadi. Bular sinonimik qatorni tashkil qilgan bo'lsa-da, biroq birlamchi ma'no bilan ko'chim orasidagi bog'liqlik ma'lum ma'noda uzilganini kuzatish mumkin.

Sotiboldining xotini og'rib qoldi. Sotiboldi **kasalni** o'qitdi – bo'lmadi, tabibga ko'rsatdi. Betobning ko'zi tinib, boshi aylanadigan bo'lib qoldi. Baxshi o'qidi. **Bemor** og'irlashdi. Sotiboldi xo'jayinining oldiga arzga bordi, ammo bu borishdan muddaosi nima ekanini aniq bilmas edi. **Bemor** kundan-kun battar, oxiri **o'sal** bo'ldi. “Ko'ngilga armon bo'lmasin” deb “chilyosin” ham qildirishga to'g'ri keldi. Sotiboldi qizchasini **o'lik** yonidan olib, boshqa yoqqa yotqizayotganda qizcha uyg'ondi va ko'zini ochmasdan odatdagicha duo qildi.²


	Betob
	Bemor
Kasal	Kasal
	O'sal
	Xasta
	O'lik

Disfemik birliklar. Ma'lumki, siyosiy tushunchalar muhit bilan bog'liq holda nafaqat evfemik, balki disfemik shaklda xalq nutqida, qolaversa, Abdulla Qodiriy asarlarida o'z aksini topgan. Ifoda evfemik xususiyatiga ega bo'lgani holda ba'zan ular qo'shtirnoq ichida berilgani kuzatiladi. Bu esa ularning, o'z o'rnida, teskari mazmunni ifodalashini ko'rsatadi. “Semantik nuqtai nazardan disfemizm denotatni salbiy munosabat asosida atashni o'zida aks etiradi”³. Masalan, adib salbiy munosabatini ifodalash maqsadida xonning o'zini obrazlar nutqidan turli disfemik birliklar (adolatpanoh, soyaboni marhamat) orqali ifodalaydi: Hayhot, bu razolatni Anvarning nafi hazm qilolmag'anidek, «adolatpanoh»ning ham bu to'g'rida “marhamat”lari shubhalik. Bu o'rinda matn mohiyatidan kelib chiqib e'tirof etish mumkinki, adolatli emas ma'nosi ifodalangan. “Soyaboni marhamat” vijdon kengashiga quloq solg'uchi “ahmoq”lardan emasdir. Xudoyorxonning soyaboni marhamatligi shubha tug'dirishi nashrda qo'shtirnoq ichida berilganligi bilan belgilanayotir. Xudaychi qulluq qilgan ko'yi orqasi bilan yurib, birinchi xonaning dahliziga keldi va dahlizda kutib turg'an Anvarni huzuri muborak sari yo'lg'a soldi. Bu jumlada Anvarning xon huzuriga borayotganligi tufayli huzuri muborak disfemik birligidan o'z o'rnida foydalanilgan. Shuningdek, adibning Xudoyorxonga tegishli janobi oliy disfemik birligi ham matn

² Qahhor, A. Bemor // Tanlangan asarlar. 3-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.

³ Шомаксудов А., Расулов И., Кунгуров Р., Рустамов Х., Узбек тили стилистикаси, Т., 1983.

ichida vaziyatga bog‘liq holda keladi: Xon hali ichki o‘rdadan chiqmag‘an, hamma ra‘iyat «janobi oliy»ni kutib muhtasham darbozaga ko‘z tikkanlar edi .



Abdulla Qodiriyning ma‘naviy nuqsonlarni anglatuvchi distemik birliklari ham sinonimik qatorni tashkil etishi mumkin. Jumladan, aqli qisqa, aqli tushdan keyin kirgan, po‘kak bosh kabi ifodalar obraz nutqida salbiy kayfiyatni uyg‘otuvchi disfemizm sifatida qaraladi.

Zid ma‘noli evfemizmlar. “Evfemik ma‘noga mezon va me‘yor belgilanmasdan, uni (evfemizmi) yondosh, o‘xshash, turdosh, jinsdosh hodisalaridan farqlab yoki chegaralamasdan yangi bir soha bo‘lgan evfemiologik tadqiqotni amalga oshirib bo‘lmaydi.”⁴ Biroq evfemizmi ayrim badiiy tasviri vositalar bilan birga antonimik holati ham o‘rganishga loyiq bir hodisadir. Umuman olganda, mazkur tadqiqot yetuk ijodkor tili va uslubi bo‘yicha kuzatilar ekan, bunday nazariy hodisalarning muayyan ma‘noda o‘rganilishi uchun yetarlicha materialga ega bo‘lish ahamiyatli. Abdulla Qodiriy iqtidorining ko‘pqirraligi uning evfemik ma‘no yuklagan ifodalari orasida zid ma‘nolilari mavjudligi bilan belgilanadi. Fursati kelishi bilan yana bir yomonliq qilmoqqa qutidorning qizini o‘ziniki etishga o‘ylab yuradir. Bu gapdagi o‘ziniki etmoq evfemizmi “o‘ziniki etmaslik, o‘zidan soqit qilmoq” tushunchasiga antonim munosabatda bo‘ladi. Demak, “taloq qilmoq”, “ajramoq” mazmunini beruvchi tinchitmoq evfemik birligi o‘ziniki etmoq birligiga nisbatan zid ma‘noli. – Sen

⁴ Шомаксудов А., Расулов И., Кунгуров Р., Рустамов Х., Узбек тили стилистикаси, Т., 1983.

tinchitmasang, –dedi Xushro‘y, – boshqalar seni tinchitar. Qo‘shirnoq ichida berilgan ifodalari teskari mazmun berishi ham o‘quvchiga ayon. Bu, o‘zo‘zidan, ma‘lum tushuncha ifodalovchisiga zid ma‘no yuklaydi. Masalan, “husni Yusuf” ifodasi Yusufning juda go‘zalligini bildiribgina qolmay, matndan ajratib qo‘shirnoq ichida berilganligi tasvirlanayotgan obrazning aksincha xunuk, badbashara ekanligiga ishoradir. Abdulla Qodiriyning kichik hajviy asarlarida uchraydigan ayollarga nisbatan ishlatiladigan mushfiqa, ojiza, karima so‘zlariga nisbatan qo‘shirnoqda berilgan “mushtipar”, “mushfiqa” ifodasi ham xuddi shunday antonim munosabatda bo‘ladi. Qiyoslaymiz:

1. O‘shal kundan boshlab ul mushfiqa atrof javonibga azbaroyi sovchilik uchun yurganlarida faqirg‘a muvofiqutta‘b bir nozanin topilmas erkan .

2. Albatta, bu mushtiparlarning ko‘ngillarini olmoq har bir belida belbog‘i bor bo‘lg‘an kishining vazifasidir.

Shuningdek, afifa (bokira qiz) hamda buzilgan (bokira emas) evfemik birliklari o‘zaro zid ma‘noli ifodalardir: Shariat ishiga sharm yo‘q, deydirlar o‘rtoq, agarchi siz bilan menga bir muncha og‘irroq bo‘lsa ham yana so‘zlab o‘tishga hojat bor: kunlardan bir kun taqdir shamoli yuradirda bir kimsaning iffat pardasi ostida o‘ltirgan qizining yuzidagi niqobini ko‘tarib ikkinchi tomondan bizning Otabekni shu afifaga ro‘baro‘ qiladir. Shu daqiqadan boshlab bekda u afifaga qarshi bir ishq, ham chin bir ishq tug‘iladir... Qizi tushkur jajmondekkina ekan. Hayfki buzilg‘anda...

"Shum bola" asarida qarg‘ish ma‘nosini bildiruvchi disfemik birliklar

1. Bunga Olim jinni:

– Ahmoqsan, Toji, ahmoqsan. Yer, axir, taroziga o‘xshagan narsa bo‘ladi, hamma bir tomonga yursa, yer barkashday bir yoqqa og‘ib, hammamiz Qurdu daryoga g‘arq bo‘lib ketamiz-ku, – dedi. Ushbu matnda ahmoq deb munosabat bildirish qarg‘ish ma‘nosini beruvchi disfemik birlikdir.

2. Uning yonidan hujraga kirishning evini topolmadim, birorta hiyla ishlatish kerak edi.

– Shapag‘, – dedim unga, – katta to‘ping qayerda?

– Qo‘g‘irchoqlarimning oldida, nima qildi?

– U yerda yo‘q-ku!

– Ha... o‘lgur, sen olgandirsan, hozir berasan, ber. "Shum bola" asaridan olingan Qoravoy tilidan aytilgan o‘lgur so‘zi disfemik birlikdir.

3. Oshxonamiz yo‘l ustida bo‘lganidan onam ko‘rib qoldi.

– Hoy, **juvonmarg zumrasha**, tag‘in ko‘chagami? Bu yoqqa kel, olovni jo‘nashtirib ket, tutay berib ko‘zimni ko‘r qilayozdi. Juvonmarg so‘zining ma‘nosi juvon -yosh, marg-o‘lmoq ma‘nosini anglatadi. Juvonnimak degan varianti ham uchraydi. Zumrasha har qanday nojo‘ya ish qo‘lidan keladigan bola.

4. Uncha-muncha pul qilay, kiyim-boshimni tuzatay.

– Voy, **ablah-ey**, pochchangning qumrisini nima qilding?

– Nima qilibman?

– Lo‘lilarga sotgan ekansan-ku!

– Sotmaganman, molga ayirbosh qilganman.

5. Bularni ko‘rish bilanoq Omonning chaynagani og‘zida, yutgani bo‘g‘zida qolib, menga baqrayib qaradi. Men unga “supani bo‘shatamiz” degandek imo qildim. O‘rnimizdan turdik. Zolariq yoqasida it bog‘langan tolning tagidagi maysaga borib o‘tirdik. Sulton **kissavur**:

– Sheshe, omonmisan? – dedi. – Bu kech bizni qo‘noq qilasan. Yaxshi chiqqan bo‘zalardan bormi? Keyin bizga ko‘zi tushib qolib:– Hoy, sen **haromilar**, bu yerda nima qilib yuribsanlar? Qani bu yoqqa kel! – dedi.

6. Azbaroyi Xudo, borim shu, boshqa pulim bo‘lsa, imom A‘zam ursin. – Lippasini axtar, **dayusni**! Domlani tunamoqda edilar. Bunday to‘polonlarni ko‘ra berib ko‘nikib ketgan Yaxshiqiz kampir bemalol o‘choqboshi bilan o‘tov o‘rtasida xizmat qilib yurar edi.

7. Nima deyapsan, **haromi**, boshqa shuncha aravakash otlar turib, kelib-kelib mening birdan-bir boqib qo‘ygan uloqchi otim bilan suv tashiysanlarmi, **padarla‘natilar**?

8. Boy g‘iqillab turib so‘radi:

– Xushxabaring qursin, padarla‘nat, qanaqa xushxabar?

– O‘rtancha qizingiz Adol opam dunyoga arziydigan bitta o‘g‘ilcha tug‘dilar

9. Agar hammasi bo‘lmasa, butun yolg‘on qilsang, men xonavayron bo‘lar ekanmanda, tur-ey, padaringga la‘nat seni, qorning oshga to‘ymasini, **juvonmarg** bo‘l! Haydang bu kazzobni!

Umuman olganda, G‘afur G‘ulom "Shum bola" asarida haromi, padarlan‘at kazzob, dayus, kissavur, ablah kabi disfemik birliklardan foydalangan. Ular ma‘lum bir stilistik vazifani bajargan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шомаксудов А., Расулов И., Кунгуров Р., Рустамов Х., Узбек тили стилистикаси, Т., 1983.
2. Omonturdiyev A., O‘zbek nutqining evfemik asoslari, Т., 2000.
3. Qahhor, A. Bemor // Tanlangan asarlar. 3-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti.
4. G‘ulom, G‘. Shum bola. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti.